

ALISHER NAVOIYNING IJTIMOIQIY- ANTROPOLQOGIK QARASHLARIDA INSON MUAMMOSI

Gulova Anorgul Axtamovna

*Buxoro davlat universiteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrası
dotsenti, falsafa fanları bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРОБЛЕМА ЧЕЛОВЕКА В СОЦИАЛЬНО- АНТРОПОЛОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДАХ АЛИШЕРА НАВОИ

Gulova Anorgul Axtamovna

*Бухарский государственный университет, доцент кафедры
общественно-политический наук, доктор философских
наук (PhD)*

THE HUMAN PROBLEM IN ALISHER NAVOI'S SOCIAL AND ANTHROPOLOGICAL VIEWS

Gulova Anorgul Akhtamovna

*Bukhara State University, Associate Professor of the Department
of Social and Politikal Sciences, Doctor of Philosophy (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ijtimoiy-antropologik qarashlarida inson muammosi masalasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zar: muhaddis, mutakallim, ma’naviyat, ma’rifat, tafakkur, jamiyat, ta’lim.

Аннотация: В данной статье анализируется проблема человека в социально-антропологических взглядах Алишера Навои.

Ключевые слова: муҳаддисы, мутакаллим, духовность, просвещение, мысл, общество, образование.

Annotation: This article analyzes the human problem in the socio-anthropological views of Alisher Navoi.

Key words: muhaddis, mutakallim, spirituality, enlightenment, thought, society, education.

KIRISH

Barcha diniy-falsafiy ta’limotlarda markaziy o‘rinni komil inson g‘oyasi egallaydi. Navoiy o‘z asarlarida jamiyatni insonparvarlashtirish masalalarini tasavvufiy-irfoniy g‘oyalar, qarashlar orqali yechishga urinadi. Alisher Navoiyning “komil inson” g‘oyasi “Ilohiy ishq” va “axloq va nafs tarbiyasi”ga asoslanadi.

Tasavvufdagi hayotni sevish, tabiatni ilohiy mazhar (ilohiy shakllangan manba) sifatida tan olib, uning barcha ne’matlarini qadrlash g‘oyasi Alisher Navoiyning jamiyatni poklash, tinchlik va bag‘rikenglik tamoyillarini targ‘ib etishdagi faoliyatida qo‘l kelgan.

Navoiyning asaridagi asosiy g‘oya “vahdat ul-vujud” (“vujud yagona”ligi) va tajalliy (tasavvuf

falsafasiga ko‘ra bu dunyo Allohnинг tajalliyisi-Allohnинг jilolanishi)dir. Navoiy fikricha, Haq nuriga g‘arq bo‘lib, uning jamoli haroratida yonmaguncha Haqni anglab bo‘lmaydi¹.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

“Axloq va nafs tarbiyasi” aslida kalom ilmining “inson amallari” konsepsiysi doirasida buyurilgan va man etilgan qoidalar muammosidan kelib chiqqan. Shu o‘rinda kalom ilmi bilimdoni, buyuk olim Abu Mansur Moturidiy to‘g‘risida gapirishni joiz topdik. U “Tavhid” kitobida “taboyi” – narsalarning tabiat (xossasi) haqida gapirar ekan, u har bir jismoniy ibtido (oyin), ya’ni hissiy organlar yordamida his qilinadigan barcha narsalarda borligini ta’kidlaydi. Taboyilar shunday xossalarki, ular bir-biriga qarama-qarshi kuchlar bo‘lib, bir-birlaridan qochadilar. Qoida bo‘yicha, ularning birini ikkinchisi ustiga qo‘ysang, ular birikish o‘rniga, o‘z tabiatiga ko‘ra biri ikkinchisini itaradi va qarama-qarshi harakatda bo‘ladi. Shunday ekan, ular butun koinotdagi tartibotni izdan chiqarib yuborishi kerak edi. Ammo qudratli Parvardigor taboyi’larni, ya’ni xossalarni ularning o‘zaro ichki qarama-qarshiliklariga qaramay, bir-birlari bilan qovushtirgan va ulardagi o‘zgarishlarning tartibli hamda maqsadli ravishda amalga oshishini nazorat qiladi². Moturidiy fikrlariga hamohang tarzda Alisher Navoiy shunday deydi:

“Qatragacha qulzumi zahhordin,
Zarrag‘acha shamsai zarkordin.
Oni munga muni anga band etib,
Bir-biriga borchani payvand etib.
Vositalar bo‘ldi ayon to‘-barto’,
Bir-birig‘a bog‘lanibon mo‘-bamo”³.

Har bir inson bu ne’matlarning qadriga yetib, o‘zini qadamba-qadam isloh qilib borishi kerakligini ta’kidlagan mutafakkir “Xamsa” asarida insonning komillik darajasiga yetishishi uchun nimalardan o‘zini tiyishi, hazar qilishi va aksincha, qanday xulq-atvorga, xislat va fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligini

yuksak mahorat bilan tasvirlaydi. Allomaning fikricha, miqdor jihatdan tarbiyalangan inson, sifatiy jihatdan komil insonga aylanadi. “Xamsa”ning “bismilloh”idan Alisher Navoiyning inson haqidagi fikrlari boshlanadi. Ya’ni faylasuf shoirning fikricha, “bismillohir rahmonir raiyim” shundayin bir bebafo marjondirki:

“Har dur anga javhar⁴i jondin fuzun⁵,
Qiymat aro ikki jahondin fuzun”⁶.

“Jahonu jon” rishtasi bu kabi durlar tizilgan marjonning ipi hisoblanadi. Mabodo biz bularni marjonning xususiyati deb qabul qiladigan bo‘lsak, uning fazilati boshqa holatda namoyon bo‘ladi. Qaysi bir kishi mazkur marjoni tasbih qilib, ko‘ngil bilan haq yo‘liga ishtig‘ol (harakat) qilsa, ganji baqoga (abadiylik xazinasiga) ega bo‘ladi. Shu orada u mahzani “vahdatga (Xudoning tanholigi siri tomon) yo‘l” ham olishi mumkin. Ammo mazkur yo‘l juda og‘ir va xavfli sanaladi. Navoiy ta’biricha, insonlar xuddi ana shu yerda ikkiga ajraladilar:

“Qilg‘uchi bu bodiya⁷ qat‘ig‘a mayl (Sahro(Haqq) yuzlantiruvchi maydon)ni bosib o‘tishni xoxlasang), Ahli qabulu rad erur ikki xayl”⁸ (Qabul qilinuvchilar va rad etiluvchilar toifalari borligini bil).

Bu o‘rinda ahli rad deganda madatkordan madad olmay yo‘lga tushuvchilar nazarda tutilyapti. Bu toifa kishilarga ganji ilohiy (ilohiy boylik)ga borish nasib etmaydi. Yuqorida tilga olingan tasbih ajdaho bo‘lib ularning yo‘lini to‘sadi va bevosita ahli qabul uchun yo‘l ochib beradi. Bundan keyin Alisher Navoiy maxluqot(inson)ni yaratgan Xoliqqa hamdu sanolar aytadi. Sababi Alloh o‘z qalami bilan maxluqot (inson) tasviriga chehra kusholik qilgan, ya’ni uning ko‘ngliga ishq otashini alangalatgan.

Tasavvuf nuqtai nazaridan Alloh tavsifi dastlabki munojotda beriladi: Ya’ni:

“Ne bo‘lub avvalda bidoyat sanga (Senga azaldan ibtido bo‘limgan), Ne kelib oxirda nihoyat sanga (Senga oxirda ham intiho yo‘q). Avval

¹ Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009. – Б. 40.

² Сироиддинов Ш. Алишер Навоий ижодида диний эътиқод масаласи. “Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий таракқиётидаги ўрни” халқаро илмий анжуман материаллари. – Навоий, – 2017. – Б. 9.

³ Алишер Навоий. Ҳайратул-аборор, МАТ, 20 жилдлик, Ж. 7.– Тошкент, 1991, – Б. 26.

⁴ Жавҳар-гавҳар. (Алишер Навоий асарларининг изоҳли лугати. Ж.1. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 554.)

⁵ Фузун-кўп. (Алишер Навоий асарларининг изоҳли лугати. Ж.3. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 358.)

⁶ Алишер Навоий. Ҳайратул-аборор. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 11.

⁷ Бодия-саҳро. (Алишер Навоий асарларининг изоҳли лугати. Ж.1. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 305)

⁸ Алишер Навоий. Ҳайратул-аборор. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 12.

O‘zung, oxiru mobayn o‘zung (Boshlanish ham o‘zing, yakunu oraliq ham o‘zing), **Barchag‘a Xoliq, borig‘a ayn o‘zung”⁹** (Barchaga Yaratuvchi, barchaga ko‘zgu o‘zing).

Bu davrda borliqda Allohdan boshqa zot yo‘q edi. Tangrining tengsiz jamoli faqat Ungagina jilvalanar edi:

“Sen edingu bas yana mavjud yo‘q,
Jilva qilib o‘zungga o‘z husnung o‘q”.¹⁰

Tangriga beedad ko‘zguning taqozo etishining boisi Parvardigorning husnu jamoli hadsiz ekanligidir. Alloh olamni yaratishdan maqsad shu ediki, uning har bir unsurida yaratuvchining jamoli, xuddi ko‘zguda aks etgandek zuhur etib turadi:

“Jilvai husnunng‘a chu yo‘q erdi had (*Husnining go‘zalligiga chegara yo‘q edi*),

Ko‘zgu kerak bo‘ldi anga beedad (*Shuning uchun unga hadsiz ko‘zgu kerak bo‘ldi*).

Ochti bu gulshanniki rangin erur (*Rangin gulshan(olam)ni ochdi*),

Har gul anga oyinayi Chin erur (*Har bir gul unga haqiqiy oyna edi*).

Jilvai husn o‘lg‘ali zohir anga (*Husni jilolanishini ko‘rishi uchun*),

Bo‘ldi bu mir‘ot mazohir anga”¹¹ (*Barcha narsa bu oynada o‘z aksini topdi*).

Alloh barcha olamlarni yaratar ekan, borliqni tashkil etgan barcha narsalardan a‘lороq va sharafliroq bo‘lgan maxluqqa o‘z jamolini jilvalantirish maqsadida bo‘lgan. Maxluq inson nomi bilan atalgan mavjudot edi:

“Ganjing aro naqd farovon edi,
Lek boridin g‘araz inson edi”¹².

Inson o‘zga maxluqotlardan farq qilib, Allohnning kalomiga komil ekanligi, bundan tashqari, u yaratganning yashirin (hali oshkor etilmagan) sirlarini o‘zida tashuvchi, go‘yo Alloh hikmatlar xazinasining bir bo‘lagi bo‘lgan maxluq ekanligi uning bu qadar sharafga loyiq va e‘zozli ekanligi boisidan:

⁹ Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент, Фан, 1991, – Б. 19.

¹⁰ Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7.– Тошкент, Фан, 1991, – Б. 20.

¹¹ Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7.– Тошкент, Фан, 1991, – Б. 20.

¹² Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7.– Тошкент, Фан, 1991, – Б. 348.

¹³ Алишер Навоий. Ҳамса. Ҳайратул-аброр. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. Ўн жилдлик, Ж. 6. – Тошкент: Ўзбекистон

“Turfa kamolingg‘a dog‘i komil ul,
Sirri nihoningg‘a dog‘i homil ul.
Ko‘ngliga qilding chu yaqin ganji qism,
Jismini ul ganjga qilding tilsim”¹³.

Shu bois ham Alloh kalomi bo‘lgan Qur’oni Karimda hazrati inson sha’niga: ”Karramno – boshqa maxluqlardan mukarram qildik”, “Ahsani taqvim – eng chiroyli yaratilgan”¹⁴, degan maqtovlar bitilgan. Bundan tashqari, inson Xudoning ma‘rifatini (ya’ni, uni tanish ilmini) bilishga qodir, dono maxluqdir:

“Ma‘rifating kim qila olmay sifat,
Qilding ani orifi ul ma‘rifat”¹⁵.

Xulosa

Bundan ko‘rinadiki, inson, Alisher Navoiy ta‘kidicha, Tangri taolo tomonidan ojiz, hikmat va fazilatlardan xoli zot sifatida vujudga keltirilmagan. Demak, inson – Allohnning mo‘jizalar xazinasi, komil aql va fahmga ega bo‘lgan orif mavjudotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009. – Б. 40.
- Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy ijodida diniy e’tiqod masalasi. “Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma‘naviy-ma‘rifiy taraqqiyotidagi o‘rnii” xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Navoiy, – 2017. – Б. 9.
- Alisher Navoiy. Hayratul-abror, MAT, 20 jildlik, J. 7.– Toshkent, 1991, – B. 26.
- Alisher Navoiy. Xamsa. Hayratul-abror. Farhod va Shirin. TAT. O‘n jildlik, J. 6. – Toshkent: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – B.15.
- A.Mansur. (tarj. va izoh muallifi). Qur’oni Karim. Al-Isro surasi 70-oyat. – B. 184. www.ziyouz.com.

Матбуот ва ахборот агентлиги Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2011. – Б.15.

¹⁴ А.Мансур. (тарж. ва изоҳ муаллифи). Куръони Карим. Ал-Исрор сураси 70-оят. – Б. 184. www.ziyouz.com.

¹⁵ Алишер Навоий. Ҳамса. Ҳайратул-аброр. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. Ўн жилдлик, Ж. 6. – Тошкент: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2011. – Б.15.